

VIZNTIYA IMPERIYASI (SHARQIY RIM IMERIYASI)***ERGASHEV BIOLDIN XUSANBOY o'g'li***

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'quvchisi .

Tel: +998 (93)-353 -77-15. E-mail; ergashevbiloldin5@gmail.com

ВИЗАНТИЙСКАЯ ИМПЕРИЯ (ВОСТОЧНО-РИМСКАЯ ИМПЕРИЯ)***ЭРГАШЕВ БИЛОДИН ХУСАНБОЙ ОГЛИ***

Студентка кафедры социально-гуманитарных наук Наманганского филиала Ташкентского международного химического университета.

Tel: +998 (93)-353 -77-15. E-mail; ergashevbiloldin5@gmail.com

BYZANTINE EMPIRE (EASTERN ROMAN EMPIRE)***ERGASHEV BIOLDIN KHUSANBOY O'g'li***

Student of the Department of Social and Humanitarian Sciences, Namangan Branch of the Tashkent International University of Chemistry.

Tel: +998 (93)-353 -77-15. E-mail; ergashevbiloldin5@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Vizantiya imperiyasi tarixiy rivojlanishi, siyosiy tizimi, madaniy yutuqlari va uning global tarixdagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Vizantiya imperiyasi — Sharqiy Rim imperiyasining davomchisi bo'lib, 330-yilda Rim imperiyasining ikkiga bo'linishidan so'ng o'zining alohida siyosiy va madaniy tizimini rivojlantirdi. Imperiya, asosan, Byzantium (hozirgi Istanbul) atrofida tashkil topgan va keyinchalik Konstantinopol deb atalgan shahar uning poytaxti bo'lib xizmat qilgan. U Rim imperiyasining qolgan qismlariga nisbatan uzoqroq yashab, 1453-yilda Usmonli turklari tomonidan zabit etilgunga qadar 1000 yildan ortiq davom etdi. Vizantiya Rim imperiyasidan ajralib chiqishi, Konstantinopol shahrining ahamiyati va imperianing qulashiga olib kelgan omillar batafsil yoritiladi. Shuningdek, maqola Vizantiya san'ati, huquq tizimi va pravoslav cherkovining shakllanishi borasida chuqr tahvilni o'z ichiga oladi. Maqola o'quvchilarini bu buyuk imperianing madaniy va tarixiy merosi bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Vizantiya imperiyasi, Sharqiy Rim imperiyasi, Konstantinopol, Vizantiya madaniyati, Rim huquqi, Pravoslav cherkovi, Vizantiya san'ati, Imperianing qulash sabablari, O'rta asrlar tarixi, Yustinian qonunlari, Byzantium, Tarixiy merosi.

Abstract

This article provides information about the historical development of the Byzantine Empire, its political system, cultural achievements, and its place in global history. The Byzantine Empire was the successor to the Eastern Roman Empire, which developed its own separate political and cultural system after the division of the Roman Empire in 330. The empire was mainly based around Byzantium (now Istanbul), with the city later called Constantinople serving as its capital. It outlived the rest of the Roman Empire, lasting for over 1,000 years until it was conquered by the Ottoman Turks in 1453. The separation of Byzantium from the Roman Empire, the importance of the city of Constantinople, and the factors that led to the empire's collapse are discussed in detail. The article also includes an in-depth analysis of Byzantine art, the legal system, and the formation of the Orthodox Church. The article aims to familiarize readers with the cultural and historical heritage of this great empire.

Keywords: Byzantine Empire, Eastern Roman Empire, Constantinople, Byzantine culture, Roman law, Orthodox Church, Byzantine art, Causes of the fall of the empire, Medieval history, Justinian's laws, Byzantium, Historical heritage.

Аннотация

В этой статье представлена информация об историческом развитии Византийской империи, ее политической системе, культурных достижениях и ее месте в мировой истории. Византийская империя была преемницей Восточной Римской империи, которая разработала свою собственную отдельную политическую и культурную систему после разделения Римской империи в 330 году. Империя в основном базировалась вокруг Византии (ныне Стамбул), а город, позже названный Константинополем, служил ее столицей. Она пережила остальную часть Римской империи, просуществовав более 1000 лет, пока не была завоевана турками-османами в 1453 году. Подробно обсуждаются отделение Византии от Римской империи, важность города Константинополя и факторы, которые привели к краху империи. Статья также включает в себя глубокий анализ византийского искусства, правовой системы и формирования Православной церкви. Цель статьи — познакомить читателей с культурным и историческим наследием этой великой империи.

Ключевые слова: Византийская империя, Восточная Римская империя, Константинополь, Византийская культура, Римское право, Православная церковь, Византийское искусство, Причины падения империи, Средневековая история, Законы Юстиниана, Византия, Историческое наследие.

Kirish

Vizantiya imperiyasi, qadimgi Rim imperiyasining sharqiy merosxo‘ri sifatida, tarixda noyob va muhim o‘rin egallagan. 395-yilda Teodosiyning vafotidan so‘ng Rim

imperiyasida ichki majorolarni bo'ladi va imperiya bo'linishi natijasida tashkil topgan bu davlat o'zining uzoq davom etgan tarixi davomida dunyo siyosiy va madaniy xaritasida katta iz qoldirdirgan bo'lib. Vizantiya o'zining geografik joylashuvi juda yaxshi bo'lganligi tufayli Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajardi va shu bilan birga Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi aloqalarning asosiy o'chog'iga aylandi. Bu esa G'arb va Sharq madaniyati, uruf odatlari, kiyinish odobi ,hunarmatchilik, ilim fan, va boshqa turli sohalar almashunuv uchun zamin yaratdi. Imperianing iqtisodiy va siyosiy qudrati asosan poytaxt Konstantinopolga bog'liq bo'lган.¹ Konstantinopol shahri 330-yilda Konstantin I tomonidan qadimgi Vizantion shahri o'rnida asos solingan bo'lib u juda qisqa muddat ichida dunyoning eng yirik va boy shaharlaridan biriga aylangan.² Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tarixiy malumotlarga ko'ra 6-asrning oxirlariga kelib Konstantinopolning aholisi 500 mingdan oshgan bo'lib, bu uni o'rta asrlardagi eng yirik shaharlardan biriga aylantirgan. Ushbu ko'rsatkich nafaqat iqtisodiy kuch, balki imperianing strategik ahamiyatini ham aks ettirgan. Vizantiya imperiyasining siyosiy tuzilmasi Rim huquqi va merosiga asoslangan bo'lib, uning boshqaruv tizimi kuchli markazlashgan harbiy sitsategiyaga ega edi. Imperator hukmronligi absolutizmga asoslangan bo'lib, davlat va cherkov o'rtasidagi integratsiyani o'zida mujassamlashtirdi. Bu jarayon ko'pincha "Sesaropapizm" deb ataladi va pravoslav cherkovi rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Yustinian I hukmronligi davrida ishlab chiqilgan "Corpus Juris Civilis" huquq kodeksi, o'z davrida huquqiy islohotlarning asosi bo'lган bo'lsada keyinchalik Yevropa mamlakatlarining huquq tizimlariga ham ta'sir ko'rsatgan.³ Madaniy jihatdan Vizantiya imperiyasi qadimgi yunon va Rim an'analari, shuningdek, Sharq madaniy elementlarini o'zida akisetirgan noyob birlashma bo'lган. Imperianing san'ati va arxitekturasi, xususan, mozaikalar, freskalar va monumental qurilishlar o'sha davrda noyob ijodiy yutuqlarni namoyon qilgan. Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya sobori VI asrda qurilgan bo'lib, o'zining o'lchamlari, muhandislik yechimlari va estetik yuksakligi bilan insoniyat tarixidagi eng muhim inshootlardan biri hisoblanadi.⁴ Imperianing geosiyosiy o'rni va kuchi ko'p asrlar davomida o'z hududida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ichki ziddiyatlar,noroziliklar, iqtisodiy inqirozlar va tashqi bosqinlar imperianing qulashiga olib keldi. Ayniqsa, Usmonli imperiyasining tashkil topishi va kuchayishi natijasida Vizantianing zaiflashishiga olib kelgan omillar orasida asosiy o'rinni egallaydi. Usmonli imperiyasi tomonidan 1453-yilda Konstantinopolning fath etilishi bilan

¹ [Konstantinopol - Vikipediya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstantinopol)

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstantinopol>

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yustinian_I

⁴ "Ayo Sofiya" - tarix zARBALARIGA dosh bergen masjid - zarnews.uz

Vizantiya imperiyasi tarix sahnasidan chiqdi⁵, biroq uning madaniy va huquqiy merosi zamonaviy dunyoga chuqr ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

Adabiyot tahlili va metodologiya

Adabiyot tahlili

Vizantiya imperiyasining tarixi, madaniyati va siyosiy tuzilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli va xilma-xildir. O'zbek tilida chop etilgan manbalar orasida "Umumsan'at tarixi" nomli o'quv qo'llanmasi alohida o'rinni tutadi. Ushbu asarda jahon me'morchiligi va tasviriy san'atidagi badiiy jarayonlar, xususan, o'rta asrlar Vizantiya san'ati batafsил yoritilgan. Qo'llanmada Vizantiya me'morchiligi va tasviriy san'atining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar, sanamnavislikning badiiy kanonlari va o'ziga xos uslubiy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, "Jahon tarixi II" o'quv dasturida Vizantiya va Rossiya o'rtasidagi aloqalar, imperiya mudofaa qobiliyatining susayishi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Bu kabi manbalar Vizantiya imperiyasining turli jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya

Ushbu maqolada Vizantiya imperiyasini o'rganish uchun tarixiy-tahliliy metod qo'llaniladi. Bu qollanma orqali imperiyaning strategiyasini organib, tarixda tutgan o'rni, siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichlari, shuningdek, uning qulashiga olib kelgan omillar chuqr tahlil qilamiz. Bundan tashqari, qiyosiy tarixiy metod yordamida Vizantiya imperiyasining boshqa zamondosh davlatlar bilan o'zaro ta'siri va farqlari aniqlanadi. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlardan keng foydalanish natijasida imperiyaning hududiy kengayishi, aholi soni va iqtisodiy ko'rsatkichlari haqida aniq tasavvur hosil qilinadi. Masalan, 565-yilda imperiya aholisi 26 millionni tashkil etgan bo'lsa, 1282-yilga kelib bu ko'rsatkich 5 milliongacha kamaygan. O'lat turli kasalliklar va urushlar natijasida 5 million inson halok bo'lgan. Bunday raqamlar imperiyaning demografik o'zgarishlarini tushunishda muhimdir. Shuningdek, san'at va me'morchilik sohasidagi yutuqlarni o'rganishda ikonografik tahlil usuli qo'llaniladi. Bu usul orqali Vizantiya san'atining o'ziga xos xususiyatlari va ularning davr madaniyatidagi o'rni aniqlanadi. Maskur izlanishlar tadqiqotning ilmiy asoslangan va kompleks bo'lishini ta'minlaydi.

Muhokama

Vizantiya imperiyasi, nomidan tashqari, Sharqiy Rim imperiyasi nomi bilan ham tanilgan, Rim imperiyasi bo'linishi natijasida uning o'rnida sharqiy qismida Rim imperiyasining davomchisi Vizantiya qayta tashkil topadi. Poytaxti Konstantinopol (hozirgi Istanbul) bo'lgan bu imperiya o'zining ming yildan ortiq davom etgan tarixi davomida Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarida muhim geosiyosiy rol o'ynagan. Imperiyaning hududi eng ravnaq topgan davrida Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo,

⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Mehmed_II#/media/File:Gentile_Bellini_003.jpg

Suriya, Falastin, Misr, Kirenaika, Mesopotamiyaning bir qismi, G‘arbiy Armaniston va Gurjiston, Qrim yarim oroli, Kipr va Krit orollarini o‘z ichiga olgan. Aholisi esa 565-yilda 26 millionga yetgan, ammo 1282-yilga kelib turli omillar sabab 5 milliongacha kamaygan. Imperator Yustinian I (527–565) yillar oraligida Vizantiya gullab yashnadi va o‘zining eng qudratli davrini boshdan kechirdi. Yustinian I hukmronligi davrida imperiya hududi kengayib, Shimoliy Afrika, Italiya va Ispaniyaning janubiy qismlari qaytadan qo‘shib oldi. Bundan tashqari, Yustinian I tomonidan huquqiy islohotlar amalga oshirilib, "Corpus Juris Civilis" nomi bilan mashhur bo‘lgan Rim huquqi kodifikatsiyasi yaratildi. Vizantiya imperiyasi o‘zining madaniy merosi, ayniqsa, san’at, arxitektura va shunga o’hshash ko’plab sohalaridagi yutuqlari bilan ajralib turadi. Masalan, Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi VI asrda qurilgan bo‘lib, o‘sha davr arxitekturasining eng yuksak namunalaridan biri desak mubolag’a bo’lmaydi . Vizantiya Imperiya 1453-yilda Usmonli turklar tomonidan Konstantinopolning zabit etilishi bilan nihoyasiga yetdi. ⁶Bu voqeа o‘rtа asrlarning tugashi va yangi davrning boshlanishi sifatida tarixda muhim ahamiyat ega bo’ldi . Yuqoridagi ma'lumotlar asosida, Vizantiya imperiyasining siyosiy tizimi davrida uning hududiy kengayishi va qisqarishi, aholi sonining o‘zgarishi kabi statistik ko‘rsatkichlar imperianing siyosiy va iqtisodiy holatini aks ettiradi. Shuningdek, madaniy yutuqlar, xususan, arxitektura va huquq sohasidagi islohotlar, imperianing o‘z davridagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq, ichki ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlar va tashqi bosqinlar imperianing zaiflashishiga va oxir-oqibatda qulashiga olib kelgan. Bu omillarni chuqurroq o‘rganish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega bo’ladi.

Xulosa

Vizantiya imperiyasi dunyo tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davlatlardan biri bo‘lib, uning ming yildan ortiq davom etgan tarixi butun dunyo siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Vizantiya imperiya Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajargan va qadimgi Rim an’analari bilan Sharq sivilizatsiyalari elementlarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgan. Ayniqsa, uning boshqaruv tizimi, huquqiy islohotlari, san’ati va arxitekturasi zamonaviy dunyo rivojlanishiga bevosita ta’sir qilgan. Imperianing siyosiy tuzilmasi kuchli markazlashgan boshqaruv tizimiga asoslangan bo‘lib, cherkov va davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik uni boshqa davlatchilik shakllaridan farqlantirgan. Bu integratsiya nafaqat diniy sohada, balki huquq va ijtimoiy masalalarda ham iz qoldirgan. Yustinian I davrida amalga oshirilgan "Corpus Juris Civilis" kabi huquqiy islohotlar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida huquqiy tizimlarning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, Vizantiya o‘zining madaniy merosi bilan ham

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Vizantiya_imperiyasi

alohida ajralib turadi. Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya sobori, Vizantiya ikonografiyasi, mozaika va freskalar o'sha davr san'atining yuksak cho'qqilari sifatida qaraladi. Ushbu yutuqlar imperianing faqat siyosiy qudrati bilangina emas, balki madaniy jihatdan ham o'z davrida yetakchi ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, Vizantiya imperiyasining tarixida ichki ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlar va tashqi bosqinlar kabi salbiy omillar ham muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, Usmonli turklar tomonidan boshlangan bosqinlar va 1453-yilda Konstantinopolning zabit etilishi imperianing tarix sahnasidan chiqishiga olib keldi. Bu hodisa o'rta asrlarning tugashi va yangi davrning boshlanishi sifatida tarixda alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda Vizantiya imperiyasining merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy dunyo uchun ham muhim saboqlarni o'z ichiga oladi. Bu merosdan davlat boshqaruvi, huquqiy islohotlar va madaniyat sohasida ko'plab o'raklar olish mumkin. Misol uchun, global iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarida Vizantiya imperiyasi tajribasi zamonaviy davlatlar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda Vizantiya imperiyasi madaniyati va boshqaruvi tizimini chuqurroq o'rganish orqali tarixning ko'plab noma'lum jihatlarini yoritish mumkin. Bu esa nafaqat tarixchilar uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham qiziq bo'lishi shubhasiz. Xulosa qilib aytganda, Vizantiya imperiyasi o'zining boy tarixi, madaniyati va siyosiy merosi bilan insoniyat rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu imperiya nafaqat tarixiy davri, balki zamonaviy dunyo uchun ham chuqr o'rganilishga arziydi. Kelajakdagi tadqiqotlar orqali uning merosini yanada kengroq yoritish va uni chuqurroq anglash imkoniyatlari mavjud.

Adabiyotlar

1. Jeffreys, Elizabeth, Haldon, John, Cormack, Robin. The Oxford Handbook of Byzantine Studies. Oxford University Press.
2. Herrin, Judith. Byzantium The Surprising Life of a Medieval Empire. Goodreads..
3. Ostrogorsky, George. History of the Byzantine State. Google Books.
4. Cormack, Robin. Byzantine Art.
5. Blume, Fred H. Corpus Juris Civilis Yustinian I huquqiy kodeksi. University of Wyoming.
6. JSTOR. Vizantiya imperiyasi haqidagi ilmiy maqolalar. JSTOR.
7. Harris, Jonathan. Byzantine Empire and the Crusades. ResearchGate.
8. Laiou, Angeliki, Morrisson, Cécile . The Economic History of Byzantium. Dumbarton Oaks.

Foydalilanigan saytlar

[Konstantinopol - Vikipediya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstantinopol)

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstantinopol>



https://uz.wikipedia.org/wiki/Yustinian_I

"Ayo Sofiya" - tarix zarbalariga dosh bergen masjid - zarnews.uz

https://en.wikipedia.org/wiki/Mehmed_II#/media/File:Gentile_Bellini_003.jpg

https://uz.wikipedia.org/wiki/Vizantiya_imperiysi